

INKLYUZIV TA'LIM: MUOMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Oolloberdiyeva Shodiyona Baxrom qizi

*Termiz Davlat pedagogika instituti Pedagogika va
Ijtimoiy fanlar fakulteti Pedagogika ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

E-mail: shodiyonaolaberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmuni, uning jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy etishdagi mavjud muammolar va ularning yechim yo'llari yoritilgan. Xalqaro tajribalar asosida inklyuziv ta'limning istiqbollari tahlil qilinadi. Maqola ta'lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish zaruratini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyoj, tenglik, pedagogik yondashuv, ta'lim tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание инклюзивного образования, его значение в обществе, а также существующие проблемы в реализации инклюзивного образования в Республике Узбекистан и пути их решения. На основе международного опыта анализируются перспективы инклюзивного образования. В статье обосновывается необходимость создания равных возможностей для всех детей в системе образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые потребности, равенство, педагогический подход, система образования.

Abstract: This article discusses the content of inclusive education, its importance in society, as well as the existing problems in the implementation of inclusive education in the Republic of Uzbekistan and ways to solve them. The prospects for inclusive education are analyzed based on international experience. The article justifies the need to create equal opportunities for all children in the education system.

Keywords: inclusive education, special needs, equality, pedagogical approach, education system.

Kirish: Zamonaviy demokratik jamiyatda har bir insonning ta'lim olish huquqi ustuvor qadriyat hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — har bir bolaga, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy farqlaridan qat'i nazar, sifatli va teng imkoniyatlari ta'lim olish imkonini yaratishdir. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarning umumiyligi ta'lim muhitida birgalikda o'qib, rivojlanishiga sharoit yaratadigan pedagogik yondashuv bo'lib, u ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida muhim huquqiy va amaliy qadamlar qo'ymoqda. Biroq,

tizimni to‘liq joriy etish yo‘lida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun, balki har qanday farqli o‘quvchilar uchun yagona muhitda ta’lim olish imkonini yaratadi. Bunday ta’lim modeli ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, diskriminatsiyani kamaytiradi hamda har bir bolaning ijtimoiy-huquqiy tengligini ta’minlaydi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarda bag‘rikenglik, hamkorlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi. O‘zbekistonda hambu yo‘nalishda huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, uni amaliyotda to‘liq joriy etish uchun hali ko‘p ishlar amalga oshirilishi lozim.

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarni, ularning jismoniy yoki aqliy holatidan, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, umumiy ta’lim tizimiga qo‘sishni nazarda tutuvchi yondashuvdir. Bu yondashuvning markazida har bir bola uchun sharoit yaratish, ularni ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etish turadi. Inklyuzivlik bu faqatgina nogironligi bo‘lgan bolalar bilan bog‘liq emas, balki har qanday farqlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanish holati So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limga oid bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan: 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”sini ratifikatsiya qildi; 2020-yilda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, unda inklyuziv ta’lim alohida yo‘nalish sifatida belgilandi;

2021-yildan boshlab ayrim umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda. Bu islohotlar inklyuzivlikni huquqiy asosda mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, amaliyotda turli to‘siqlar mavjud. Inklyuziv ta’limda uchrayotgan muammolar

Kadrlar muammosi: Inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagog kadrlar yetarli emas. Ko‘pchilik o‘qituvchilar imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashga tayyor emas. Infratuzilma mos emas: Aksariyat ta’lim muassasalarida panduslar, liftlar, moslashtirilgan hojatxonalar, eshitish va ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun kerakli texnik vositalar mavjud emas. Ota-onalar va jamiatning tayyor emasligi: Jamiatda inklyuzivlik haqida yetarli tushuncha mavjud emas. Ayrim hollarda ota-onalar o‘z farzandlarini nogironligi bo‘lgan bolalar bilan birga o‘qitilishiga qarshilik ko‘rsatmoqda. Metodik ta’minot: Inklyuziv sinflarda foydalanish mumkin bo‘lgan metodik qo‘llanmalar, darsliklar va didaktik materiallar yetarli emas. O‘zbekiston sharoitida jahon tajribalardan kelib chiqib, quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Pedagoglarni inklyuziv ta’lim bo‘yicha muntazam o‘qitish va malakasini oshirish; Ta’lim muassasalarini texnik jihatdan moslashtirish, Inklyuzivlik bo‘yicha keng jamoatchilikni xabardor qilish va tushunchalarni shakllantirish; Maxsus o‘quv rejalarini va metodik materiallar ishlab chiqish.

Xulosa: Inklyuziv ta’lim — bu har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlovchi adolatli tizimdir. Bunday yondashuv jamiyatda mehr, bag‘rikenglik va tenglik muhitini shakllantiradi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish yo‘lida ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hali bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham ko‘p: bu — o‘qituvchilarni tayyorlash, maktablarni moslashtirish va ota-onalar bilan ishlashdir. Agarda bu yo‘nalishda izchil harakat qilinsa, inklyuziv ta’lim tizimi samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil, yangi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Inklyuziv ta’limni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. BMT “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi. Nyu-York, 2006-yil.
4. UNESCO. “Inclusive Education: The Way of the Future”. International Conference on Education, Geneva, 2008
5. A. K. Karimova. Pedagogik texnologiyalar va inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.
6. M. Jo‘rayev. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Q. Mamatqulov, D. Xudoyberdiyeva. Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma”. – Toshkent, 2021.